ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 98 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA SODERJANIE CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Гапурова



ASLIYAT VA FRANSUZCHA TARJIMALARDAGI TOPONIMLARNING STRUKTUR-GRAMMATIK MODELLARI

Valijon Mamadjonov Alixanovich
Namangan davlat chet tillar instituti
nemis va fransuz tillari kafedrasi mustaqil tadqiqotchi
ORCID: 0009-0008-5967-3812

Annotatsiya: Maqolada "Boburnoma" asliyati va fransuzcha tarjimalaridagi toponimlarning strukturaviy-grammatik modellari o'rganiladi. Tadqiqotning maqsadi nomlarning komponent tarkibi, so'z yasalishi, sintaktik bog'lanishi va geografik indikator maqomini qiyosiy tavsiflashdan iborat. Sodda, yasama, qo'shma, birikmali va izofali birliklar alohida tahlil qilinadi. Fransuz tilidagi transkripsiya, de predlogi ishtirokidagi konstruksiyalar, kalka, transpozitsiya, ekspansiya va kompressiya hodisalari yoritiladi. Muallif strukturaviy moslikni so'zma-so'z tenglik emas, balki grammatik munosabatning funksional saqlanishi sifatida talqin qiladi. Ilmiy yangilik sifatida indikator maqomi va tarjima transformatsiyasini birlashtiruvchi qiyosiy model taklif etiladi. Natijalar tarixiy shakl, kategorial ma'no va fransuz tilida so'zlashuvchi o'quvchi uchun tushunarlilik o'rtasida muvozanatni saqlash zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: toponim, strukturaviy-grammatik model, izofa, geografik indikator, transkripsiya, transliteratsiya, kalka, transpozitsiya, fransuzcha tarjima.

Abstract: The article examines the structural and grammatical models of toponyms in the original Baburnama and its French translations. The study aims to compare their component structures, word-formation patterns, syntactic relations, and status as geographical indicators. Simple, derived, compound, multiword, and izafet-based units are analyzed separately. Particular attention is paid to transcription, constructions involving the French preposition de, calquing, transposition, expansion, and compression. Structural correspondence is interpreted not as literal identity but as the functional preservation of grammatical relations. The study proposes a comparative model that integrates indicator status with the type of translation transformation, constituting its principal scholarly contribution. The findings highlight the need to balance historical form, categorial meaning, and accessibility for French-speaking readers.

Key words: toponym, structural and grammatical model, izafet, geographical indicator, transcription, transliteration, calque, transposition, French translation.

Аннотация: В статье исследуются структурно-грамматические модели топонимов оригинала "Бабур-наме" и его французских переводов. Цель работы заключается в сопоставительном описании компонентного состава, словообразования, синтаксических связей и статуса географического индикатора. Отдельно анализируются простые, производные, сложные, составные и изафетные единицы. Рассматриваются транскрипция, конструкции с предлогом, калькирование, транспозиция, экспансия и компрессия. Автор трактует структурное соответствие не как буквальное совпадение, а как функциональное сохранение грамматических отношений. Научная новизна исследования заключается в предложении сравнительной модели, объединяющей статус индикатора и тип переводческой трансформации. Результаты показывают необходимость соблюдения баланса между исторической формой, категориальным значением и понятностью текста для франкоязычного читателя.

Ключевые слова: топоним, структурно-грамматическая модель, изафет, географический индикатор, транскрипция, транслитерация, калька, транспозиция, французский перевод.

KIRISH

"Boburnoma" Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston hududlarining tarixiy geografiyasi, etnik tarkibi va madaniy xotirasini aks ettiruvchi yirik onomastik manbadir. Asardagi geografik nomlar nafaqat referentni ko'rsatadi, balki obyekt turi, tabiiy belgi, etnik mansublik, shaxs nomi va tarixiy nomenklaturani ham o'z tarkibida mujassamlashtiradi. Shu sababli toponimlarning strukturaviy-grammatik qurilishini asliyat va fransuzcha tarjimalar kesimida o'rganish tarixiy tilshunoslik, tarjimashunoslik va lingvokulturologiya uchun dolzarbdir [1; 2; 3].

Tadqiqot obyekti – "Boburnoma"dagi toponimlar va ularning fransuzcha tarjimalarda qayta ifodalanishi. Tadqiqot predmeti esa toponimlarning komponentlar soni, morfologik tuzilishi, so'z turkumlari tarkibi, sintaktik bog'lanish turi, geografik indikator maqomi hamda tarjimada yuzaga kelgan strukturaviy transformatsiyalardir.

Tadqiqotning maqsadi asliyatdagi toponimik birliklarni strukturaviy-grammatik modellar bo‘yicha tizimlashtirish va ularning fransuz tilida qayta tashkil etilish usullarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- sodda, yasama, qo‘shma, birikmali va izofali modellarni farqlash;
- atoqli ot yadrosi bilan geografik indikator chegarasini belgilash;
- so‘z turkumlarining nominativ vazifasini tavsiflash;
- transkripsiya, kalka, transpozitsiya, ekspansiya hamda kompressiya hodisalarini qiyoslash;
- tarjima yechimlarini strukturaviy va funksional muvofiqlik mezonlari asosida baholash.

Maqolaning ilmiy yangiligi toponimning ichki modeli bilan uning tarjimadagi o‘zgarishini yagona tavsif matritsasida birlashtirishdan iborat.

Mazkur yondashuvda “indikatorning maqomi → asliyatdagi bog‘lanish → fransuzcha vosita → saqlangan yoki yo‘qolgan ma’no” ketma-ketligi asosiy tahlil birligi sifatida qabul qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Boburnoma” toponimiyasini o‘rganishda asarning ilmiy nashrlari, o‘zbek onomastikasi bo‘yicha lug‘at va qo‘llanmalar hamda maxsus maqolalar muhim manba vazifasini bajaradi. S. Qorayev geografik nomlarni shakl, ma’no va tarixiy taraqqiyot bilan bog‘liq holda tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi [4].

E. Begmatov va N. Uluqov onomastik terminlarni tizimlashtirib, toponim, gidronim, oykonim hamda indikator kabi tushunchalarning ilmiy chegaralarini belgilaydilar [5].

Z. Xolmonovaning “Boburnoma” leksikasiga doir tadqiqotlari asar tilining tarixiy qatlamlari va leksik birliklarining funksional xususiyatlarini yoritadi [6].

F. Rajabov va M. Turdiyeva “Boburnoma”dagi izofali onomastik birliklarni tasniflab, Ko‘hi Jud, Ko‘hi Safid, Bog‘i Bihisht, Chashmayi Para, Raboti Ro‘zak va Dehi G‘ulomon kabi ko‘plab birliklarni qayd etadilar [7]. Ularning materiallari forsiy izofaning toponim yasashda faol qolip bo‘lganini ko‘rsatadi.

M. Abdusalomova va J. Yoqubov esa asardagi joy nomlari hamda ayrim toponimlarning etimologik tavsifiga e’tibor qaratadilar [8].

Fransuz tilidagi manbalar orasida A. Pavet de Courteille tomonidan 1871-yilda chig‘atoy tilidagi matndan amalga oshirilgan Mémoires de Baber tarjimasi ilk to‘liq fransuzcha nashr sifatida alohida ahamiyatga ega [2]. J.-L. Bacqué-Grammontning Le Livre de Babur tarjimasi esa XX asr fransuz sharqshunoslik an’anasi va zamonaviyroq transliteratsiya tamoyillarini aks ettiradi [3].

Mazkur ikki tarjima tarixiy grafik variantlar, geografik apellyativlarning berilishi va izofali shakllarning segmentatsiyasini qiyoslash imkonini yaratadi. Avvalgi tadqiqotlarda toponimlarning etimologiyasi, izofali birliklar yoki umumiy onomastik tarkib ko‘proq yoritilgan.

Ushbu maqola ulardan farqli ravishda toponimning ichki grammatik modelini fransuzcha tarjimadagi sintaktik qayta tuzilish bilan bevosita bog‘laydi hamda strukturaviy o‘zgarishni tarjimaviy funksiya nuqtayi nazaridan baholaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda strukturaviy-semantik tahlil, komponent tahlili, qiyosiy-tarjimaviy tahlil, kontekstual tahlil va tasniflash metodlaridan foydalanildi.

1. **Strukturaviy-semantik tahlil** yordamida toponimlar bir komponentli, yasama, qo‘shma, sintaktik birikmali va izofali modellarga ajratildi.
2. **Komponent tahlili** orqali atoqli ot asosi, geografik apellyativ, aniqlovchi, izofa ko‘rsatkichi va tarixiy formantning chegaralari belgilandi.
3. **Qiyosiy-tarjimaviy** tahlilda asliyatdagi bog‘lanish turlari fransuz tilidagi transkripsiya, transliteratsiya, de predlogi ishtirokidagi konstruksiyalar, artiklli birikmalar, semantik kalka va appozitsiya vositalari bilan qiyoslandi.

Har bir birlik bo‘yicha to‘rtta savol qo‘yildi:

- Referent saqlanganmi:
- Obyekt kategoriyasi ochib berilganmi:

- Komponentlar o‘rtasidagi grammatik aloqa ifodalanganmi:
- Tarixiy-madaniy shakl qay darajada saqlangan?

4. **Kontekstual tahlil** bir xil leksik asosning shahar, viloyat yoki daryo nomi sifatida qo‘llanishini farqlash uchun ishlatildi.

Tadqiqotdagi miqdoriy diagramma butun “Boburnoma” korpusining statistik ko‘rsatkichlarini emas, balki maqolada batafsil tahlil qilingan 24 ta vakillik misolining taqsimotini aks ettiradi. Shu sababli u umumiy chastotani emas, tanlangan materialning strukturaviy nisbatini ifodalaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Toponimlarning asosiy strukturaviy modellari

Toponimning strukturaviy-grammatik qurilishi komponentlar soni, so‘z yasalish modeli, so‘z turkumlarining ishtiroki, sintaktik bog‘lanish turi va geografik indikator maqomi orqali belgilanadi. Strukturaviy tahlil nomni mexanik qismlarga ajratishdan iborat emas, balki qaysi unsur atoqli ot yadrosi, qaysi unsur obyekt turini bildiruvchi nomenklatura birligi, aniqlovchi, izofa ko‘rsatkichi yoki tarixiy formant ekanini aniqlashni nazarda tutadi.

Sodda toponimlar sinxron tahlilda bir leksik asos sifatida idrok etiladi: O‘sh, Kesh, Balx, Sind, Agra, Dehli, Kobul va Xo‘jand. Ularning tarixiy etimologiyasi murakkab bo‘lishi mumkin, ammo tahlil qilinayotgan davr tilida ular yaxlit atoqli birlik vazifasini bajaradi.

Fransuz tilida O‘sh – Ouch, Kobul – Kaboul, Balx – Balkh kabi shakllar bir komponentlilikni saqlagan holda, grafik-fonetik moslashtirishni namoyon etadi [2; 3]. Yasama toponimlarda leksik asosga affiks yoki tarixiy formant qo‘shiladi. -iston formanti xoronimlar tarkibida hudud ma’nosini ifodalaydi: Hinduston, Afg‘oniston, Turkiston. -obod formanti esa tarixan “obod qilingan, bunyod etilgan manzil” semasiga ega bo‘lib, fransuz tilida odatda -abad yoki -âbâd shaklida transliteratsiya qilinadi. Bunday formantni faqat zamonaviy tashqi o‘xshashlik asosida ajratish mumkin emas; uni tarixiy manbalar va parallel nomlar bilan qiyoslab tekshirish zarur.

Qo‘shma toponimlar ikki yoki undan ortiq mustaqil asosning yagona geografik nomga birikishi natijasida yuzaga keladi. Ular sifat + ot (Qiziltepa), ot + ot (Toshkent, Toshqo‘rg‘on), son + ot (Uchqo‘rg‘on, Beshkent), antroponim + indikator va etnonim + indikator kabi modellarda namoyon bo‘ladi. Toshkent nomidagi tosh va kent unsurlari strukturaviy jihatdan qo‘shma, tarixiy-etimologik jihatdan esa turli kelib chiqish qatlamlarini birlashtiruvchi modelni hosil qiladi.

Fransuz tilidagi Tachkend shaklida ushbu unsurlar semantik tarjimasiz, yaxlit birlik sifatida beriladi [3]. Birikmali va ko‘p komponentli toponimlar sintaktik aloqa orqali tashkil topadi: Mehtar Sulaymon tog‘i, Xo‘jand suvi, Muhammad og‘a kenti, Masjidi Javzo va Bog‘i Dilkusho. Xo‘jand suvi modelida oykonim ikkilamchi gidronimik nominatsiya uchun asos bo‘ladi. Fransuz tilidagi rivière de Khodjend shaklida komponentlar tartibi o‘zgaradi, biroq obyekt kategoriyasi va mansublik munosabati ochiq ifodalanadi.

Forsiy izofa va gibrid tarixiy birliklar

Forsiy izofa aniqlanmish bilan aniqlovchini -i/-yi vositasida bog‘laydi. Ko‘hi Safid, Bog‘i Vafo, Obi Istoda, Darai Nur, Jo‘yi Shohiy, Qal’ayi Zafar, Dehi Afg‘on, Ko‘tali Zarrin va Raboti Sarhang kabi birliklarda birinchi komponent ko‘pincha geografik indikator, ikkinchi komponent esa sifat, shaxs nomi, etnonim yoki mavhum ot vazifasini bajaradi [7]. Ko‘hi Safid “oq tog‘”, Dehi Afg‘on “afg‘on qishlog‘i”, Qal’ayi Zafar “zafar qal’asi”, Ko‘tali Zarrin esa “oltin dovon” munosabatlarini ifodalaydi. Biroq bu izohlar nomlarning bevosita tarjimasi emas, balki ularning ichki motivatsiyasini ko‘rsatadi. Toponimning kanonik shakli matnda transliteratsiya qilinishi, uning ma’nosi esa izoh orqali ochib berilishi mumkin. Arabiy kelib chiqishga ega masjid, qal’a, rabot, hazrat, mavze va viloyat kabi birliklar tarixiy o‘zbek tiliga singib, turkiy yoki forsiy komponentlar bilan gibrid nomlarni hosil qiladi. Shu bois “arabiy izofa” atamasini ehtiyotkorlik bilan qo‘llash kerak: ko‘plab misollarda leksik komponent arabiy kelib chiqishga ega bo‘lsa-da, komponentlar o‘rtasidagi bog‘lanish qolipi forsiy izofaga asoslanadi. Fransuz tilida masjid – mosquée, qal’a – forteresse/citadelle, viloyat – province/principauté tarzidagi muqobillarni qo‘llash obyektning kategorial ma’nosini ochib beradi, biroq tarixiy shaklning ayrim xususiyatlarini yo‘qotishi mumkin.

So‘z turkumlari va geografik indikatorlarning vazifasi

Toponim tarkibida ot eng faol nominativ asos hisoblanadi. Sifat obyektning rangi, hajmi yoki baholovchi belgisini; son miqdor va tarixiy guruhlanishni; antroponim asos solish, mulkchilik yoki xotira bilan bog‘liq munosabatlarni; etnonim esa etnik yashash yoki mansublikni ifodalaydi. Asosiy modellar quyidagilardan iborat: ot – Kobul, Balx; sifat + ot – Qiziltepa; son + ot – Uchqo‘rg‘on; ot + ot – Toshqo‘rg‘on; indikator + antroponim – Bog‘i Vafo; indikator + etnonim – Dehi Afg‘on; indikator + sifat – Ko‘hi Safid; indikator + mavhum ot – Qal’ayi Zafar. Geografik indikator uch xil maqomda uchraydi: nomning ajralmas komponenti, erkin obyekt turini

bildiruvchi apellyativ va ma'nosi xiralashgan tarixiy formant. Qiziltepa tarkibidagi tepa ajralmas komponent, Sayhun daryosi birikmasidagi daryo izohlovchi apellyativ, Samarqand tarkibidagi -kand esa sinxron idrokda yaxlitlashgan tarixiy formant sifatida qaraladi. Tarjima strategiyasi aynan shu maqomga bog'liq: tarixiy formant, odatda, tarjima qilinmaydi, erkin apellyativ esa rivière, montagne, jardin, forteresse yoki village kabi so'zlar bilan ifodalanishi mumkin. Indikatorni tarjima qilish obyekt kategoriyasini ochib beradi, ammo milliy-tarixiy shaklning ayrim xususiyatlarini kamaytirishi mumkin. Uni transliteratsiya qilish manba matnning milliy koloritini saqlaydi, biroq fransuz tilida so'zlashuvchi o'quvchi obyekt turini anglamasligi ehtimoli mavjud. Shu sababli birinchi qo'llanishda transliteratsiyalangan nom bilan tarjima qilingan indikatorni birga berish, keyingi o'rinlarda esa qisqartirilgan kanonik shakldan foydalanish funksional muvozanatni ta'minlaydi.

Fransuz tilidagi strukturaviy qayta tashkil etish

Fransuz tilida aniqlovchi munosabat de predlogi, artikl, sifatning postpozitsiyasi yoki appozitsiya orqali ifodalanadi. Asliyatdagi "aniqlovchi + indikator" modeli fransuz tilida "indikator + de + nom" shakliga o'tishi mumkin: Xo'jand suvi – rivière de Khodjend. Izofali "indikator + belgi" modeli esa Koh-i-Safid kabi transliteratsiya, Montagne Blanche kabi to'liq kalka yoki montagne de Koh-i-Safid kabi aralash yechim orqali berilishi mumkin. Komponentlar tartibining o'zgarishi transpozitsiya sifatida tavsiflanadi. Le, la, les artikllari va de predlogining qo'shilishi strukturaviy ekspansiyani, indikatorning tushirilishi esa kompressiyani yuzaga keltiradi. Referent va kategorial ma'no saqlansa, bunday o'zgarishlar grammatik moslashtirish sifatida baholanishi mumkin. Biroq indikator nomning ajralmas qismi bo'lsa, uning tushirilishi strukturaviy-semantik yo'qotishga olib kelishi mumkin. Onomastik konversiyada bir leksik asos turli obyekt kategoriyalariga nisbatan qo'llanadi. Kobul shahar, viloyat va daryo nomi sifatida ishlatilganda uning shakli o'zgarmasligi, referent esa kontekst orqali aniqlanishi mumkin. Fransuz tilidagi ville de Kaboul, rivière de Kaboul va principauté de Kaboul konstruksiyalari ko'p ma'nolilikni kamaytirib, obyekt turini aniq ko'rsatadi.

XULOSA

"Boburnoma" toponimlarining strukturaviy-grammatik tizimi bir komponentli nomlardan izofali va ko'p komponentli gibrid konstruksiyalargacha bo'lgan murakkab tarixiy qatlamni qamrab oladi. Sodda, yasama, qo'shma, birikmali va izofali modellarni ajratishda sinxron shakl, tarixiy etimologiya va matndagi sintaktik maqom bir-biridan farqlanishi lozim. Fransuzcha tarjimada strukturaviy muvofiqlik shaklning aynan takrorlanishi emas, balki grammatik va kategorial munosabatlarning funksional qayta kodlanishidir. Transkripsiya tarixiy qiyofani, de predlogi ishtirokidagi konstruksiya sintaktik aloqani, semantik kalka esa motivatsion ma'noni kuchliroq saqlaydi.

Shu sababli har bir toponim uchun kanonik shakl, komponentlarning shaffofligi, obyekt turi va o'quvchi ehtiyojini hisobga oladigan differensial strategiya zarur.

Birinchidan, tarjima tahlilida har bir nomning atoqli ot yadrosi va indikatori alohida belgilanishi kerak.

Ikkinchidan, "arabiy izofa" bilan arabiy kelib chiqishli leksik komponent qatnashgan forsiy izofani farqlash lozim.

Uchinchidan, tarixiy formantlar so'zma-so'z tarjima qilinmasligi, erkin geografik apellyativlar esa zarur hollarda fransuzcha muqobil bilan ochib berilishi maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, izofali nom birinchi marta qo'llanganda uning kanonik transliteratsiyasi va qisqa semantik izohini birga berish, keyingi qo'llanishlarda esa barqaror shaklini saqlash tavsiya etiladi.

Beshinchidan, Pavet de Courteille va Bacqué-Grammont tarjimalari asosida toponimlarning parallel elektron korpusini tuzish, variantlarni transkripsiya, kalka, transpozitsiya, ekspansiya va kompressiya kodlari bilan belgilash keyingi tadqiqotlarning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi mumkin.

Taklif etilgan "indikator maqomi → asliyatdagi bog'lanish → fransuzcha vosita → semantik natija" modeli toponim tarjimasini faqat imlo variantlari darajasida emas, balki tarixiy-madaniy va grammatik tizimlararo o'tish jarayoni sifatida baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002.
2. Babur. Mémoires de Baber (Zahir-ed-Din-Mohammed), fondateur de la dynastie mongole dans l'Hindoustan. Traduit du texte djagataï par A. Pavet de Courteille. – Paris: Maisonneuve et Cie, 1871.
3. Babur. Le Livre de Babur: mémoires de Zahiruddin Muhammad Babur de 1494 à 1529. Présenté et traduit du tchaghatay par Jean-Louis Bacqué-Grammont. – Paris: Publications orientalistes de France, 1980.
4. Qorayev, S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
5. Begmatov, E.; Uluqov, N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006.
6. Xolmonova, Z. Boburnoma leksikasi. – Toshkent: Fan, 2007.
7. Rajabov, F.; Turdiyeva, M. "Boburnoma"da izofali onomastik birliklar. Scientific Impulse, 2023, 1(5), 1038–1040.
8. Abdusalomova, M.; Yoqubov, J. "Boburnoma"da toponimlar tavsifi. Interpretation and Researches, 2023, 1(21).

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.